

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MADANIYAT VA TURIZM SOHASINI BOSHQARISHNING NAZARIY HAMDA HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Raximbayev O‘tkir Fayzullayevich**  
*Xorazm viloyati Yangibozor tumani*  
*Erkin ijodkor va mustaqil tadqiqodchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada mustaqil diyorimizda Madaniyat va turizm sohasini boshqarishning nazariy hamda huquqiy asoslari, bu sohani rivojlantirishni takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan.*

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** *O‘zbekiston Respublikasida Madaniyat va turizm sohasini boshqarishning nazariy hamda huquqiy asoslarini takomillashtirishning tub mohiyatini ochib berish.*

**Natija:** *tarixiy va zamonaviy vatanimizda turizm va Madaniyat sohasini rivojlantirishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan tizimni targ‘ibot etish.*

**Kalit so‘zlar:** *Madaniyat va turizm, nazariy, huquqiy, mintaqa, ma‘naviyat beshigi, obidalar, e‘tibor...*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ УПРАВЛЕНИЯ СФЕРОЙ КУЛЬТУРЫ И ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Аннотация:** *В данной научной статье описаны теоретические и правовые основы управления культурой и туризмом в нашей независимой стране, а также проводимая работа по совершенствованию развития этой сферы.*

**Цель написания данной статьи:** *раскрыть сущность совершенствования теоретико-правовых основ управления сферой культуры и туризма в Республике Узбекистан.*

**Результат:** *продвижение системы, которая должна быть ориентирована на развитие туризма и культуры на нашей исторической и современной родине.*

**Ключевые слова:** *Культура и туризм, теоретический, правовой, регион, колыбель духовности, памятники, внимание...*

O‘zbekiston o‘zining turistik salohiyati bo‘yicha jahonda yetkachi o‘rinlarni egallaydigan 15 ta mamlakat qatoridan joy olgan. Respublikamiz hududida 4 mingdan ortiq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar, go‘zal landshaftlar, xilma xil noyob o‘simliklar va hayvonot dunyosi mavjud. Bularning barchasi sayyohlarning yurtimizga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. Dunyo davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirda turistlarda muayyan bir mavzuga asoslangan yo‘nalishlar bo‘yicha sayyohat qilish istagi mavjud. Ular biror bir mintaqa yoki mamlakatni to‘laligicha emas, balki o‘ziga xos jihatlarni ko‘rishni istaydi. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo‘linishi xususida to‘xtalib o‘tish

muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to‘rtta asosiy turistik mintaq mavjud bo‘lib, ular Farg‘ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg‘ona turizm mintaqasi Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me‘morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an’anaviy xalq hunarmandchiligi va san’ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblash bo‘ladi. Bunga dalil sifatida 1995-yilda «Buyuk Ipak yo‘li»ni qayta tiklashda O‘zbekiston respublikasining faol qatnashishi va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to‘g‘risida»gi farmonining qabul qilinishidir. Bu farmonga binoan turistik korxonalar bir qator soliq imtiyozlarga ega bo‘lishdi. Bu farmon «Buyuk Ipak yo‘li»da joylashgan tarixiy va madaniy shaharlarda turistik yo‘nalishlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ming yillar davomida «Buyuk Ipak yo‘li» Osiyo va Yevropa xalqlarini birlashtirishning ahamiyatli va samarali usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo‘l bo‘ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan, natijada shaharlarning, davlatlarning rivojlanishiga ko‘maklashib kelgan. Hattoki, hozirgi vaqtda bu yo‘l insoniyatga qanday global ahamiyatga ega bo‘lganligini baholash qiyin. Ammo, o‘zining faoliyatini tugatgandan keyin ham unga qiziqish yo‘qolib ketmadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Ekoharakat deputatlari guruhi hamda Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari: muammo va yechimlar” mavzuida seminar o‘tkazildi. Unda ta’kidlanganidek, bugungi kunda turizm jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga salmoqli foyda keltirayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ma’lumki Madaniyat va turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotiga eng tez daromad keltiruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi, shu boisdan ham hozirda ko‘plab mamlakatlar milliy iqtisodiyoti tarkibida turizmdan keladigan daromadlarni oshirishga harakat qilmoqda. O‘zbekistonda ham turizm sohasiga keyingi yillarda davlat darajasida jiddiy e’tibor qaratmoqda. Turizm sohasining o‘ziga xosligi shundaki, uning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri turistlar talabi va iste’molidan kelib chiqadi. Bizga ma’lumki, turistga tovar va xizmatlar yetkazib berilmaydi, balki turist-iste’molchining o‘zi xizmatlar ishlab chiqariladigan va iste’mol qilinadigan joyga yetib keladi. Xizmatlar uchun pul to‘lab, turist biron-bir joyga tashrif buyurishdan taassurot olishni xohlaydi, shuning uchun tashrif buyuradigan mamlakatlar tarixiy, ma’daniy, arxitektura, etnografik va boshqa resurslarga ega bo‘lishi kerak.

Bizning mamlakatimiz esa ana shunday o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlarini, me’moriy obidalari bilan jahonda alohida mavqega ega. O‘zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Ushbu soha yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish, valyuta va soliq tushumlari ko‘payishida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda, turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o‘rta muddatli istiqbolda edi. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek, 2017-2021-yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi turizm sohasining tezkor rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, turistik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Turizm korxonalar faoliyatida iqtisodiy erkinlikning ta’minlanishi erkin raqobat muhitini shakllantiradi.

Turizm sohasida yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar mazkur sohada bozor munosabatlariga asoslangan turizm modelini shakllantirishga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda Madaniyat va turizmni rivojlantirish, turistik salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga, valyuta tushumining o‘shishiga, eksport tarkibining takomillashuvi va diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarni jalb qilish bo‘yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an’anaviy milliy buyumlar, suvenirlar va turistlar tomonidan talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

- respublikamizning tabiiy, iqtisodiy va tarixiy salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning turli shakllari — ekskursiya va o‘rganish turizmi, arxeologik turizm, rekreatsion turizm, sarguzasht turizmi, ekzotik turizm, ekologik turizm, konferens-turlar, diniy turizm, etnik va nostalgiya turizmini rivojlantirish;

- turizm sohasini axborot bilan ta’minlash va turistik biznesda eng yangi texnologiyalardan foydalanish asosida respublikamizning turistik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni internet saytlari orqali xorijiy mamlakatlarga tarqatishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.A.Mirzayev. Madaniyat va turizm. 2005-yil.
2. Alieva M.T. Turizm'da atrof-muhitni boshqarish. Darslik-T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021-yil.
3. Internet saytlari: WWW.arxiv.uz.lex.uz.